



(2022- yilning yanvar –iyun oylarida)

## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-iyun oylarida 2992,8 ming so'mni tashkil etib, viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida 4765,6 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 159,2 %), Guliston shahrida 3472,4 ming so'mni (116,0 %), Yangiyer shahrida 3468,2 ming so'mni (115,9 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston tumanida 2200,5 ming so'mni (73,5 %), Mirzaobod tumanida 2273,6 ming so'mni (76,0 %), Oqoltin tumanida 2531,2 ming so'mni (84,6 %), Sardoba tumanida 2422,2 ming so'mni (80,9%), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, (dastlabki ma'lumot))





### Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'mda)

	2021 - yil yanvar-iyun	2022 - yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2478,6</b>	<b>2992,8</b>	<b>120,7</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2971,9	3472,4	116,8
Shirin	3322,9	4765,6	143,4
Yangiyer	2522,0	3468,2	137,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2033,3	2531,2	124,5
Boyovut	2161,1	2752,4	127,4
Guliston	1896,6	2200,5	116,0
Sayxunobod	2449,5	2855,0	116,6
Mirzaobod	1960,6	2273,6	116,0
Sardoba	2056,6	2422,2	117,8
Sirdaryo	2223,2	2518,6	113,3
Xovos	2391,5	2645,8	110,6

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili.

(2022- yilning yanvar –iyun oylarida)

**Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 275,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 138,2 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1535,7 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 63,8 % ga pasaydi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 457,1 ming so'mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 104,6 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 247,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 201,0 % ga oshdi.



- **Axborot va aloqa** sohasida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 648,5 ming soʻmni tashkil qildi va 2021 - yilning shu davri bilan taqqoslaganda 125,1 % ga oshdi.



- **Moliya va sugʻurta** faoliyati sohasida oʻrtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 339,4 ming soʻmni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 114,5 % ga oshdi.

- **Taʼlim sohasida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 572,8 ming soʻmni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 112,6 % ga oshdi.




- Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 482,1 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2021 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 117,5 % ga oshdi.

➤ **Boshqa faoliyat turlarida** oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 516,5 ming soʻmga toʻgʻri keldi va 2021 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 123,7 % ga oshdi.



➤ **2022 - yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 992,8 ming soʻmni (ish haqiga ustama, mukofot, ragʻbatlantirish xususiyatiga ega toʻlovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi toʻlovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad soligʻi, ijtimoiy sugʻurta va kasaba uyushmasiga toʻlovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **Oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʻati 120,7 % ga oʻsgan.**





### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2022 - yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda )



Ish haqi ming so‘mda — O‘shish o‘tgan yilga nisbatan %

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2022- yildagi Ish haqi miqdorini oshirish to‘g‘risidagi PF-138-sonli Farmoniga muvofiq, 2022-yilning 1-iyundan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 920 000 so‘mni tashkil etadi.

Ma’lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

Viloyat statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi  
Nashr uchun mas‘ul: A.Fathullayev  
(67) 236-86-32